

XALQ TA'LIMI TIZIMIDA RAHBAR XODIMLARNING KOMPETENTLIGINI DIAGNOSTIKA QILISH.

Xayitov Qobil Qurbonovich

*Toshkent iqtisodiyot va texnologiyalari universiteti
Ijtimoiy fanlar kafedrami o'qituvchisi.*

Annotatsiya. *Ushbu maqolada xalq ta'limida rahbar hodimlarning kompetentligi haqida hamda, uni diagnostika qilish borasida so'z boradi.*

Kalit so'zlar. *Ta'lim, modernizatsiya, siyosat, Pedagogik mahorat, boshqaruv madaniyati, kompetensiya, maktab.*

Ta'limni modernizatsiya qilish, ta'limning yangi sifatiga bo'lgan ehtiyojni qondirish XXI asr ta'lim siyosatining eng muhim vazifasi sifatida belgilandi. Ta'limni isloh qilish, unga yangi yondashuvlar va metodikalarni olib kirish, xalqaro darajadagi mutaxassislarni tayyorlash vazifasi jamiyatimizning iqtisodiy, ma'naviy-ma'rifiy, ijtimoiy-huquqiy, ilmiy-texnikaviy rivojining innovatsion faolligini belgilab beradi. Maktabda ta'lim-tarbiya jarayonini namunali tashkil etish zamonaviy tamoyillarga asoslangan boshqarishning yangi yondoshuvlari va usullarini qo'llash zarur. Zamonaviy talablarga javob beruvchi sifatli ta'lim xizmatlarini ta'minlash jarayonida barcha hodimlarning faol ishtirok etishi talab qilinadi. Jamoa azolari tomonidan qabul qilinayotgan qarorlarda ta'lim xizmatlarini faollashtirishning barcha jihatlari namoyon bo'lib borishi lozim. Shu ma'noda boshqaruvda asosiy kompetensiyani tushunish, uni qo'llash usullari, shakllari, vositalaridan maktab direktori to'liq habardor bo'lishi juda muhim. Hozirgi globallashtirish davrida fan-texnika rivojlanishi umumta'lim maktablarida olib boriladigan katta islohotlar ta'lim-tarbiyaning mazmunini o'zgartirishni, shuningdek, ta'lim tizimini bugungi zamon talablari asosida boshqarishni talab etmoqda. Bugungi ta'lim ishtirokchilari bundan 10 yil oldingi ta'limiy dunyoarashdan, o'zlarining o'quvchilariga, ta'limga bo'lgan munosabatlarini yangicha fikrlash va muloqot qilish orqali tashkil etmoqdalar. Demak, bugungi pedagog hodimlarni boshqarishda yangicha uslubga ega bo'lgan har tomonlama rahbarlik kompetentligini o'zida mujassamlashtirgan shaxs boshqarishini jamiyatning o'zi talab etmoqda.

Mamlakatimizda amalga oshirilayotgan keng ko'lamli boshqaruv islohotlarida davlat boshqaruvining turli sohalarida boshqaruv hodimlarini bilim va malakasini rivojlantirish, bu boradagi yondoshuvlarni qayta ko'rib chiqish, ularni tayyorlashning mazmuni va texnologiyalari bilan bog'liq muammolar kundun-kunga dolzarblashib



bormoqda. Bunday yondoshuvlardan biri sifatida dastlab korporativ boshqaruv va personalni boshqarishda o'z aksini topgan kadrlarni tanlash, baholash, o'qitish va rivojlantirishni jamlagan kompetentli yondoshuvdan foydalanish tavsiy etilmoqda. Zamonaviy fanda xodimlarni boshqarish nazariyasi va amaliyotini tahlil qilishda kompetensiya tushunchasiga muhim ahamiyat berilmoqda. *Kompetensiya* – xodimning kompaniya kutayotgan darajada va belgilangan tarkibda ishlab chiqarish xulqini muntazam ravishda namoyish qilishga tayyorlik qobiliyati. Kompetensiyalar tizimini yaratishda tashkilot xodimlarning faoliyatiga taalluqli muhim mezonlar majmuasini standart talablarga asosan tuzadi. Shuningdek, kompetensiya xodimlarning tashkilotda ham professional, ham ijtimoiy jihatdan tengligi xususida guvohlik beradi. XX asrning 90-yillarida mutaxassislarga malakaviy talablarni quyuvchi “Xalqaro mehnat tashkiloti” malaka oshirish hamda boshqaruv xodimlarni kasbiy qayta tayyorlashda “tayanch kompetensiya”lar degan tushunchani fanga kiritdi. Tayanch kompetensiyalari turli xil kasbiy birlashmalarda mutaxassislarning ijtimoiy-professional jihatdan ta'minlanishi hamda faoliyatga moslashishida xodimlarning xizmat vazifalaridan kelib chiqib o'ziga xos xarakter kasb etadi.

Kompetentlik eng yaxshi rahbar bo'lishning, jamoa bilan va hamjihatlikda, boshqalar bilan hamkorlikda ishlashning muhim shartidir. Har qanday ishda ham jamoaviy yoki hamkorlikda faoliyat olib borish, uning samaradorligini ta'minlovchi muhim omil hisoblanadi. Bugungi kunda fan-texnika rivojlanishi, umumta'lim maktablarida olib boriladigan katta islohotlar ta'lim-tarbiyaning mazmunini o'zgartirishni, shuningdek, ta'lim tizimini bugungi zamon talablari asosida boshqarishni talab etadi. Bu o'rinda rahbar ma'muriy qoida va ko'rsatmalardan tashqari jamoani ma'naviy qo'llab-quvvatlash, ruhlantirish va ular ichida yuzaga keladigan nizolarning oldini olishni ham bilishi kerak. Shuning uchun ham Prezidentimiz Sh.Mirziyoyev maktab ta'limini rivojlantirish masalalari yuzasidan o'tkazgan videoselektor murojaatnomasida: “Mamlakatimizda ilmfanni yanada ravnaq toptirish, yoshlarimizni chuqur bilim, yuksak ma'naviyat va madaniyat egasi etib tarbiyalash bizning eng oliy maqsadimiz. Ta'lim-tarbiya – bu bizning kelajagimiz, hayot-mamot masalasi. Shu bois bu sohadagi islohotlarni kechiktirishga haqqimiz yo'q. Har bir rahbar o'z ish uslubini o'zgartirsa, maktabda, qishloqda, mahallada o'zgarish bo'lsa, davlat ham rivojlanadi”,-deb ta'kidlaganlar. Jamiyat va davlatga faol ijodiy bilimni, ta'limni, rivojlanishni davom ettirishga qodir mutaxassislar zarur. Ular marakkab hayotiy va kasbiy muammolarni amaliy hal qilish salohiyatiga ega bo'lishlari lozim. Bu esa olingan bilimlar, malakalar va mahorat bilan birga, qo'shimcha sifatlarga bog'liqliki, ularni ifodalash uchun “kompetensiya” va “kompetentlik” tushunchalari qo'llaniladi.



Maktabni barqaror rivojlantirish uchun barcha hodim bilim olishi, o'z kasbini chuqur o'rganishi muhim hisoblanadi. O'qitish, o'quv dasturlarini yozish o'zaro hakorlikda amalga oshiriladi. Shuning uchun bunday vazifalarda javobgarlik o'qituvchilar orasida teng hisoblanadi. Maktab boshqaruvidan tortib, ta'limning har bir sohalari mamlakat ta'limidagi o'zgarishlar bilan bog'liq va hamohang tarzda amalga oshiriladi, bu tizimi bilan Finlandiya ta'lim tizimiga yaqin hisoblanadi. "Zamonaviy rahbar o'zi qanday bo'lishi kerak?"

- O'zida mustaqil fikr bo'lishi, mustaqil qarorlar chiqara olishi;
- Har bir rahbarda zamonaviy ilm-saviya va tashkilotchilik ko'nikmalarining bo'lishi;
- Jamoaviy vazifalarni bajarishda maktabda faoliyat olib boruvchilar bilan hamkorlikni tashkil qila olishi;
- O'z atrofiga yosh mutaxasislarni to'play olishi va ularga pedagogik, metodik maslahatlar bera olishi;

Har qanday bilim, malaka va mahorat istalgan vaziyatda ham o'zini kompetentsiya sifatida namoyon eta olmaydi. Masalan, boshqaruvning obektib sharoitlariga qarab o'zgarib turuvchi faoliyat mutaxasisdan yanada yuqoriroq kompetentlikni talab etadi. Bunday aniq kompetentsiyalar bilan qurollangan mutaxasislarga davlat va jamiyat boshqaruvida hamisha talab katta bo'ladi.

Xalq ta'limi tizimida rahbar xodimlarning kompetentligini diagnostika qilish uchun bir nechta usullar va vositalar mavjud.

1. Baholash tizimi: Xalq ta'limi tizimida o'quv jarayonini baholash uchun ma'lumotlar to'plamining mavjud bo'lishi kerak. Bu ma'lumotlar o'quvchilarning sinov natijalari, dars ishlanmalari, o'quv dasturlari va boshqa relevnt ma'lumotlardan iborat bo'ladi. Rahbar xodimlar bu ma'lumotlarga asoslangan holda baholanadi.

2. Portfolio: Rahbar xodimlar o'z faoliyatini ko'rsatadigan portfolio tuzishadi. Bu, ularning amaliy faoliyatlaridan, dars rejaları va yagona mashg'ulotlardan iborat bo'ladi. Portfolio rahbar xodimlarning mahorat darajasini va kompetentliklarini kuzatishga yordam beradi.

3. Murakkab masala yechish: Rahbar xodimlarni murakkab masalalar yechish bilan sinab ko'rish ham ularning kompetentligini diagnostika qilish uchun foydali usuldir. Masala yechish jarayoni davomida ularning muhim qasdlarni aniqlash, muammo analiz qilish, hal qilish strategiyalarini ishlab chiqish va kelajakdagi harakatlarni aniqlash qobiliyatlari tekshiriladi.

4. Mahorat sinovlari: Mahorat sinovlari rahbar xodimlarning bilim va ko'nikmalarni amalga oshirishi uchun o'quv jarayonining muhim qismlarini



o'rganishlariga imkon beradi. Bu sinovlar dars jarayonida yoki ajratilgan sinov davomida amalga oshiriladi.

5. O'quvchilar, ota-onalar va kollegalar so'zlari: Rahbar xodimning kompetentligini aniqlash uchun boshqa rahbar xodimlar, o'quvchilar, ota-onalar va kollegalar so'zlaridan foydalanish mumkin. Ularning fikr-mulohazalari va taqrizlari rahbar xodimning faoliyatini baholashda yordam berishi mumkin.

Kompetentlik diagnostikasi rahbar xodimlarning ilmiy-tadqiqot ishlari, ma'lumotlarga ega bo'lishi, pedagogik texnologiyalardan foydalangan holda ishlatish qobiliyatiga e'tibor beradi. Bu usullar va vositalar orqali tahlil qilingan ma'lumotlar asosida rahbar xodimning kompetentligi aniqlanadi va ularga yo'naltirish jarayonida yordam beriladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. R.Sh.Ahlidinov. Maktabni boshqarish san'ati. – T.: “Fan”, 2006, 303 bet.
2. Shavkat Mirziyoyev. Xalq ta'limi tizimini rivojlantirish pedagogning malakasini va jamiyatda nufuzini oshirish, yosh-avlod ma'naviyatini yuksaltirish masalalariga bag'ishlangan videosektor yig'ilishidagi nutqidan. 2022-yil 8-yanvar.
3. A.Tashanov.”Boshqaruv islohotlari va rahbar kompetentligi”. O`zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat va jamiyat qurish akademiyasi. – Toshkent: “Ma`naviyat”, 2011.6-b
4. A.Tashanov.”Boshqaruv islohotlari va rahbar kompetentligi”. O`zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat va jamiyat qurish akademiyasi. – Toshkent: “Ma`naviyat”, 2011. 21-b
5. Abu Nasr Farobiy. F ozil odamlar shahri. – Toshkent: A.Qodiriy nomidagi “Xalq merosi” nashriyoti. 1998.204-b

